


XII. BANDLIK VA MEHNAT BOZORI

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so'rab 58 852 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlarning katta qismi Qarshi (5 540 kishi), Qarshi shahrida (5 281 kishi), Qamashi (5 127 kishi), Koson (4 633 kishi), Kitob (4 227 kishi), Dexqonobod (3 856 kishi), G'uzor (3 674 kishi), Shahrisabz (3 617 kishi), Chiroqchi (3 533 kishi), Yakkabog' (3 333 kishi), Kasbi (3 331 kishi) tumanlariga to'g'ri keladi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga murojaat qilgan fuqarolardan 38 738 nafari ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko'rsatkich, Qarshi shahrida (3 720 kishi), Koson tumanida (3 454 kishi), Kitob (3 242 kishi), Chiroqchi (2 599 kishi), Qamashi (2 584 kishi), Qarshi (2 541 kishi), G'uzor (2 462 kishi) tumanlarida yuqori darajada bo'ldi. O'tgan davr mobaynida bandlikka ko'maklashuvchi markazlarida ro'yxatga olingan fuqarolardan 146 nafari ishsizlik maqomini olgan.

Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni (kishi)




**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlariga
ish qidirib murojaat etgan va ro‘yxatga olinganlar soni**
(2026- yil 1- yanvar holatiga, kishi)

	<i>Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlariga ish qidirib murojaat etganlar soni</i>		<i>jumladan, rasman ishsiz maqomini olganlar</i>		<i>ulardan, ishsizlik nafaqasi ajratilganlar soni</i>	
	<i>2024- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2025- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2025- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2025- yil yanvar-dekabr</i>
Viloyat bo‘yicha:	76 326	58 852	1 579	146	219	39
shaharlar:						
Qarshi	7 001	5 281	44	4	2	-
Shahrisabz	3 211	2 904	125	12	7	4
tumanlar:						
G‘uzor	5 343	3 674	236	39	15	7
Dehqonobod	5 595	3 856	46	-	1	-
Qamashi	5 364	5 127	54	2	7	-
Qarshi	7 241	5 540	60	6	13	2
Koson	6 179	4 633	99	32	36	7
Kitob	4 855	4 227	153	3	3	-
Mirishkor	3 042	2 506	109	-	11	-
Muborak	2 766	1 896	39	5	2	1
Nishon	3 844	2 955	33	7	6	-
Kasbi	4 631	3 331	153	10	71	7
Ko‘kdala	3 688	2 439	47	7	1	2
Chiroqchi	4 853	3 533	67	2	15	2
Shahrisabz	4 535	3 617	202	4	20	2
Yakkabog‘	4 178	3 333	112	13	9	5



Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga ish qidirib murojaat etgan fuqarolarning hududlar kesimidagi ulushi

(jami murojaat qilganlarga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: 2025- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga murojaat qilib kelganlardan ro'yxatga olinganlar ulushi Qarshi, Qamashi, Dehqonobod, Qarshi shahri, Koson, G'uzor, Kitob, Chiroqchi va Kasbi tumanlarida yuqori bo'lgan.


Ish bilan ta'minlangan aholi soni¹⁾

	<i>2024- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2025- yil yanvar-dekabr</i>
Viloyat bo'yicha:	39 917	38 738
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	3 629	3 720
Shahrisabz	1 767	1 981
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	2 940	2 462
Dehqonobod	2 083	2 347
Qamashi	2 579	2 584
Qarshi	2 605	2 541
Koson	3 676	3 454
Kitob	3 091	3 242
Mirishkor	1 594	1 861
Muborak	1 609	1 315
Nishon	1 767	2 017
Kasbi	2 511	1 979
Ko'kdala	2 088	1 966
Chiroqchi	2 782	2 599
Shahrisabz	2 618	2 354
Yakkabog'	2 578	2 316

¹⁾ *Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari asosida*



Ish bilan ta'minlangan aholining hududlar kesimidagi ulushi
(jami ish bilan ta'minlanganga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: Ishga joylashtirilgan shaxslar soni Koson, Qarshi shahrida, Kitob, G'uzor, Chiroqchi, Shahrisabz, Qarshi tumanlarida yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 476,7 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Nishon tumanida 6 402,2 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 147,9 %), Qarshi shahrida 6 123,5 ming so‘m (136,7 %), Muborak tumanida 5 400,6 ming so‘m (120,6 %) va G‘uzor tumanida 4 263,3 ming so‘m (99,4 %) ni tashkil etgan.


Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad

(2025- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
Viloyat bo‘yicha jami	245 002	12 983,9	4 476,7
shu jumladan:			
Sanoat	26 041	2 328,2	7 450,3
Qurilish	6 975	393,6	4 702,0
Savdo	1 844	87,7	3 963,1
Tashish va saqlash	5 969	544,3	7 599,6
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	350	10,6	2 532,8
Axborot va aloqa	1 246	143,7	9 609,2
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	1 859	294,5	13 201,8
Ta‘lim	115 962	5 020,2	3 607,7
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	52 806	1 895,3	2 991,0
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 335	162,4	5 797,3
Boshqa faoliyat turlari	29 616	2 103,4	5 918,5

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2025- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



Viloyat bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 476,7 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,2 % ga o'sgan .

O'rtacha ish haqining yuqori miqdorlari iqtisodiy faoliyat turlaridan Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilikda 13 201,8 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,9 barobarga yuqori), Axborot va aloqada 9 609,2 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,1 barobarga yuqori), Tashish va saqlash sohasida 7 599,6 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 169,7 % ni tashkil qildi), Sanoat sohasida 7 450,3 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 166,4 % ni tashkil qildi), hamda San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida 5 797,3 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 129,5 % ni tashkil qildi) ekanligi kuzatildi.




Qashqadaryo iloyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2024- yil	2025- yil	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	3 786,5	4 476,7	118,2
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	5 272,1	6 123,5	116,1
Shahrisabz sh.	3 566,7	4 352,6	122,0
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	4 091,6	4 451,7	108,8
Dehqonobod	3 646,8	4 348,0	119,2
Qamashi	2 682,6	3 156,8	117,6
Qarshi	2 945,5	3 606,0	122,4
Koson	2 995,8	3 373,6	112,6
Kitob	2 934,1	4 042,2	137,7
Mirishkor	2 870,9	3 119,0	108,6
Muborak	4 692,2	5 400,6	115,1
Nishon	4 817,8	6 402,6	132,9
Kasbi	2 994,1	3 623,3	121,0
Ko'kdala	2 921,9	3 363,9	115,1
Chiroqchi	2 869,9	3 567,0	124,3
Shahrisabz	2 892,9	3 366,3	116,3
Yakkabog'	2 724,0	3 272,1	120,1


Ish haqi. 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Ta'lim sohasida 1 924 ta muassasada 115 962 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,3 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 5 020,2 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 3,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 607,7 ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 19,2 % ga o'sgan.

Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Hududlar




■ ming so'm



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida 48 ta korxonada 26 041 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,6 %) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 2 328,2 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulishi 17,9 %) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 450,3 ming so‘mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 22,6 % ga o‘sgan.

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘m)




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nishon tumanida 19 760,1 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,6 barobarga yuqori), Dehqonobod tumanida 8 669,2 ming so‘mni (116,3 % ni tashkil qildi), G‘uzor tumanida 8 564,3 ming so‘mni (114,9 % ni tashkil qildi), Muborak tumanida 7 913,4 ming so‘mni (106,2 % ni tashkil qildi), tashkil etgan bo‘lsa, Qamashi tumanida 2 343,5 ming so‘mni (31,4 foizini), Mirishkor tumanida 2 731,4 ming so‘mni (36,6 foizini) hamda Ko‘kdala tumanida 3 302,0 ming so‘mni (44,3 foizini) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 332 ta muassasada 52 806 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 21,5 %) xodim ishlagan bo'lib ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 895,3 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 14,6 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 991,0 ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 11,2 % ga o'sgan.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so'mda)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qarshi shahrida 3 559,0 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 119,0 %) ni tashkil etgan bo'lsa, Kasbi tumanida 2 254,1 ming so'mni (75,3 %) ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



San'at, ko'ngil ochish va dam olish iqtisodiy faoliyat turida 55 ta muassasada 2 335 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 162,4 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,2 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 797,3 ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 24,7 % ga o'sgan.

San'at, ko'ngil ochish va dam olish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)



Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muborak tumanida 8 237,8 ming so'mni (viloyatdaga o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 142,0 %), Qarshi shahrida 6 880,0 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 118,6 %) ekanligi kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

(2025- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari % da)

Foiz

